



**YANGI O‘ZBEKISTONDA INSON HAQ – HUQUQLARI VA  
ERKINLIKLARI KAFOLATINING YARATILISHI  
СОЗДАНИЕ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА – ГАРАНТИЯ ПРАВ И СВОБОД  
ЧЕЛОВЕКА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ  
CREATION OF GUARANTEES OF HUMAN RIGHTS AND  
FREEDOMS IN NEW UZBEKISTAN**

Ijtimoiy fanlar fakulteti katta o‘qituvchisi:

**Atabayeva Nigora Maxmudjanovna**

Andijon davlat pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi

101-guruh talabalari:

**Mamazokirova Robiyaxon Muhammadali qizi**

**To‘xtasinova Asalxon Abdumajid qizi**

**Erkinova Gulnozaxon Toyirjon qizi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekistonda inson huquqlarini rag‘batlantirish, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta‘minlash, taraqqiyot strategiyasining ahamiyati, inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro va milliy tashkilotlar bilan hamkorligini rivojlantirish, O‘zbekistonning demokratik o‘zgarishlari haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** inson huquqlari, demokratiya, milliy qonunchilik, davlat organlari, milliy markaz.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются продвижение прав человека в Узбекистане, обеспечение социальных и культурных прав, важность стратегии развития, гарантии прав и свобод человека, развитие сотрудничества Республики Узбекистан с международными и национальными организациями, демократические изменения Узбекистана. речь идет.

**Ключевые слова:** права человека, демократия, национальное законодательство, государственные органы, национальный центр.

**Abstract:** This article discusses the promotion of human rights in Uzbekistan, the provision of social and cultural rights, the importance of the development strategy, guarantees of human rights and freedoms, the development of cooperation of the Republic of Uzbekistan with international and national organizations, and democratic changes in Uzbekistan.

**Keywords:** human rights, democracy, national legislation, state bodies, national center.

**Kirish:** So‘nggi yillarda mamlakatimizda “Inson sha’ni va qadr-qimmatini yo‘lida” g‘oyasini amalga oshirish borasida keng ko‘lamli ishlar bajarilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan 2020-yil 22-iyunda Inson huquqlari bo‘yicha Milliy strategiya qabul qilinib, natijada inson huquqlarini himoya qilish masalalari yuzasidan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik yanada faollashdi, inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xalqaro standartlar milliy qonunchilikka implementatsiya qilindi hamda davlat organlarining huquqni muhofaza qilish faoliyatiga tatbiq etildi. O‘zbekistonda inson huquqlarini rag‘batlantirish, himoya qilish va ularga rioya qilish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta‘minlash sohasida aniq maqsadga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Harakatlar strategiyasining mantiqiy davomi bo‘lgan 2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasining qabul qilindi. Ushbu hujjatda yaqin va o‘rta istiqbolda O‘zbekistonning taraqqiyot tendensiyalari, davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarini kompleks rivojlantirish yo‘nalishlari aniq belgilab berilgan.<sup>1</sup>

Taraqqiyot strategiyasining ahamiyati shundaki, uning ishlab chiqilishida mavjud muammolar e‘tiborga olingan va echimini kutayotgan dolzarb vazifalar aks ettirilgan. Eng muhimi, ushbu dasturiy hujjatning ishlab chiqilishida xalqimiz faol ishtirok etdi. Davlatimiz rahbari ta‘kidlaganidek, “Inson qadri uchun” tamoyilini barcha islohotlarimizning bosh mezoni sifatida belgiladik. “Davlat – inson uchun” degan ezgu g‘oyani hayotga tatbiq etish maqsadida 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini bevosita xalqimiz bilan maslahatlashib, odamlarimizning fikr va takliflari asosida ishlab chiqdik.

O‘zbekiston tarixida 2023-yil aprel oyida ilk bor konstitutsiyaviy referendum o‘tkazildi, uning tamal toshi inson huquq va manfaatlarini ta‘minlash, inson qadr-qimmatini himoya qilishdan iborat bo‘ldi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya O‘zbekistonning suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat sifatidagi ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi. O‘zbekiston xalqaro maydonda

---

<sup>1</sup> <http://www.insonhuquqlari.uz/oz/menu/prava-cheloveka-v-uzbekistane>



amalga oshirayotgan barcha chora-tadbirlar doirasida inson huquqlarini amalga oshirishga salmoqli hissa qo'shmoqda. Mamlakatimiz xalqaro huquqning sub'ekti sifatida o'z rivojlanishining yangi bosqichiga ko'tarildi va xalqaro shartnomalar tuzish tashabbuskori sifatida xalqaro normalarni ishlab chiqishda faol ishtirok etib kelmoqda.

Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari inson va fuqarolarning Konstitutsiya shuningdek qonunlarda mustahkamlangan huquqlari hamda erkinliklarini amalga oshirishni davlat tomonidan ta'minlashga yordam beradigan vositalar, usullar shu jumladan shart-sharoitlar majmui hisoblanadi. Inson huquqlari hamda erkinliklarining kafolatlarini quyidagicha turkumlash mumkin deb hisoblanadi: yuridik, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy deb qaraladi. Yuridik kafolatlar deganda fuqarolarning huquqlari shu bilan bir qatorda erkinliklari qonunlar asosida huquqiy jihatdan kafolatlanishini anglash mumkin. Yuridik kafolatlarning quyidagi shakllari mavjud deb qaraladi: konstitutsiyaviy huquqiy kafolatlar; sudlar tomonidan huquqlar shuningdek erkinliklarni kafolatlash; ombudsman faoliyati; hukumat faoliyatini qayd etib o'tish joiz.<sup>2</sup>

Yurtimizda inson huquq va erkinligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarga hamohang tarzda faoliyat yuritayotgan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi ham shu kabi ezgu ishlarni amalga oshirishga kamarbastalik qilmoqda. Joriy yil 31-oktyabr kuni Markaz tashkil etilganligiga 18 yil to'ladi. O'tgan davr mobaynida mazkur Markaz o'z oldidagi o'ta dolzarb sanalgan milliy harakat rejasini tuzish, Konstitutsiyamiz, qonunlar va inson huquqlari sohasidagi umume'tirof etilgan xalqaro huquq me'yorlari qoidalarini amalga oshirish strategiyasini ishlab chiqish, inson huquqlari sohasida O'zbekiston Respublikasining xalqaro va milliy tashkilotlar bilan hamkorligini rivojlantirish, mamlakatimizda inson huquqlariga rioya etilishi va bu huquqlarning muhofaza qilinishi yuzasidan milliy ma'ruzalar tayyorlash, davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga, shuningdek, inson huquqlari bo'yicha jamoat birlashmalariga maslahatlar berish, inson huquqlarini rag'batlantirish va muhofaza qilishning turli jihatlari yuzasidan tadqiqotlar o'tkazish kabi vazifalarni muvaffaqiyatli ado etib kelmoqda.

O'zbekistonda qisqa tarixiy muddat ichida milliy davlatchilikni shakllantirishning huquqiy asoslari yaratildi. Mamlakatimiz barcha rivojlangan

---

<sup>2</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Inson\\_huquqlari\\_va\\_erkinliklarining\\_kafolatlari](https://uz.wikipedia.org/wiki/Inson_huquqlari_va_erkinliklarining_kafolatlari)

huquqiy davlatlardagi kabi uch hokimiyatga, ya'ni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga taqsimlandi. Xalq farovonligi yo'lida kuchli huquqiy davlatdan fuqarolik jamiyati sari ildam qadam qo'yish maqsadida erkin bozor munosabatlariga asoslangan kuchli iqtisodiyot barpo etildi. Shu tariqa, yurtimiz xalqaro huquqning to'laqonli va teng huquqli sub'ektiga aylandi. Albatta, bularning barchasiga Prezidentimiz Islom Karimovning jonkuyarligi, tashabbuskorligi va rahnamoligi evaziga erishildi.

Inson huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilishning ta'sirli vositasini barpo etish, xalqaro tashkilotlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikni kengaytirish, davlat muassasalari xodimlari va aholining inson huquqlari bo'yicha madaniyatini oshirish maqsadida BMTning Inson huquqlari va boshqaruv tizimini demokratiyalashni qo'llab-quvvatlash dasturiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 31-oktyabrdagi Farmoni bilan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi tuzildi. Farmonda Inson huquqlari bo'yicha Milliy markazning maqsad va asosiy vazifalari aniq belgilab qo'yildi.<sup>3</sup>

1996-yil 13-noyabrdagi "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining qarori Milliy markaz faoliyatining tashkiliy-huquqiy asosi hisoblanadi. Ushbu qaror orqali Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi to'g'risidagi Nizom va Milliy markaz tuzilmasi tasdiqlangan.

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi davlatga qarashli idoralararo tahlil, tushuntirish va muvofiqlashtirish organi hisoblanadi. Ya'ni, mazkur organ inson huquqlari sohasida davlat boshqaruv organlari faoliyatini muvofiqlashtiradi, inson huquqlari sohasidagi ishlar milliy rejasini ishlab chiqadi, O'zbekistonning inson huquqlari bo'yicha milliy ma'ruzalarini tayyorlaydi, davlat xizmatchilari uchun esa inson huquqlari muhofazasi sohasida axborot bazasini yaratadi, ularni o'qitadi, maslahatlar beradi, tashviqot ishlarini olib boradi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, Markazning asosiy maqsadi bu ustuvor vazifalarni har tomonlama hal etish yo'li bilan Inson huquqlari sohasidagi Milliy faoliyat dasturini, huquq va erkinliklarni himoya etishning ko'p jihatli tizimini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etishdan iborat.

Shu o'rinda, Milliy markazning xalqaro hamkorligiga ham to'xtalib o'tish joiz. Xususan, BMTning O'zbekistondagi Taraqqiyot Dasturi, EXHTning O'zbekistondagi Loyihalar Koordinatori, Xalqaro mehnat tashkiloti,

<sup>3</sup> <https://constitution.uz/oz/pages/maqola55>

O‘zbekistondagi Evropa Ittifoqi delegatsiyasi, YuNESKO, YuNISEF, Xorijiy mamlakatlarning mamlakatimizdagi elchixonalari, qator xalqaro jamg‘armalarning vakolatxonalari bilan samarali hamkorlik o‘rnatilgan. Xalqaro sheriklar bilan hamkorlikda respublikamizda inson huquq va erkinliklarini yanada mustahkamlash, himoya qilish va rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan turli loyihalar amalga oshiriladi.

Albatta, ishimizning asosiy qismi fuqarolardan bo‘ladigan murojaatlarni qabul qilish va ularni ijobiy hal etishga qaratilgan. Shu ma’nodan Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazining asosiy faoliyat yo‘nalishlari va uning tuzilmasi haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, quyidagi raqamlarga e‘tiboringizni qaratmoqchiman: birgina Jamoatchilik bilan aloqalar bo‘limining o‘ziga fuqarolar joriy yilning o‘tgan 9 oyi mobaynida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, shaxsiy huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan 1452 holat bo‘yicha ariza, shikoyat va takliflardan iborat murojaatlarini bildirishgan. Ayni kunda 192 ta holat bo‘yicha tegishli huquqiy maslahat berildi, 117 ta holat bo‘yicha esa huquqlarni amalga oshishiga boshqa organlar bilan hamkorlik qilindi, 92 ta holat bo‘yicha buzilgan huquqlar tiklandi. Shu bilan birga, Markazimizga telefon orqali bo‘lgan ko‘plab murojaatlarga huquqiy maslahat ham berib boriladi.

Bir so‘z bilan aytganda, O‘zbekistonning demokratik o‘zgarishlarga sodiqligini namoyish qilish, yurtimizda kechayotgan ulkan o‘zgarishlar va yangilanishlar davrida avvalo inson huquqlarini himoya qilish va rag‘batlantirish birlamchi vazifalardan sanaladi. Bunda jamiyatimizda mavjud milliy institutlar ichida Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazining o‘rni beqiyosdir.

**Xulosa:** Maqolada inson huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilishning ta’sirli vositasini barpo etish, xalqaro tashkilotlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikni kengaytirish, davlat muassasalari xodimlari va aholining inson huquqlari bo‘yicha madaniyatini oshirish maqsadida amalga oshirilayotgan ishlar jamlanmasi va ularning xalq orasida takomillashtirish bo‘yicha qilinayotgan ishlar talqini haqida boradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://constitution.uz/oz/pages/maqola55>
2. <http://www.insonhuquqlari.uz/oz/menu/prava-cheloveka-v-uzbekistane>
3. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Inson\\_huquqlari\\_va\\_erkinliklarining\\_kafolatlari](https://uz.wikipedia.org/wiki/Inson_huquqlari_va_erkinliklarining_kafolatlari)
4. Atabayeva, N. M. Namangan Region Industry in World War II. AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL AND HUMANITARIAN RESEARCH.
5. Maxmudjanovna, A. N. (2023). YANGI KONSTITUTSIYADA INSON



**HUQUQLARINING O'RNI VA XALQARO HUQUQ NORMALARI BILAN UYG'UNLIGI.**

6. Salimovna, S. M. (2023). RENAISSANCE OF TIMURID PERIOD AND ITS PLACE IN WORLD CIVILIZATION. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(9), 89-92.
7. Farhodovna, X. R. O., Sobirjon o'gli, U. B., & Tohirjon o'g'li, M. Z. (2024). BALIQCHI TARIXI VA ZIYORATGOHLARI. SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY, 2(15), 80-84.
8. Keldiyeva, S. (2024). TURKISTONDAGI JADID YANGI USUL MAKTABLARINING AHAMIYATI. *Interpretation and researches*, (4 (26)).
9. Атабаева, Н. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД К СТУДЕНТАМ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ПРЕДМЕТА ИСТОРИИ. *Ilm-fan va ta'lim*, 2(2 (17)).
10. Atabayeva, N. M. (2023). Namangan Region Industry in World War II. *AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL AND HUMANITARIAN RESEARCH*.
11. Mahmudjanovna, A. N. (2021). Frontline newspapers cover the contribution of uzbek industry to victory during world war ii. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(12), 295-298.
12. Alimjanovna, M. Z. (2022, October). PUBLIC ADMINISTRATION SYSTEM AND SOCIAL LIFE IN THE KINGDOM OF BABURIDS. In *Archive of Conferences* (pp. 173-187).
13. Alimjanovna, Z. M. (2022). NOSTALGIA IN THE PERSON OF BABUR. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 4, 67-73.
14. Maxmudova, Z. (2022). MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG 'RIKENGLIK O 'ZBEK XALQINING YUKSAK QADRIYATIDIR. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(1), 150-154.
15. Shohsanam, U. (2022). Improving StudentsScientific Worldview In The Modern Education System. *Open Access Repository*, 8(03), 13-15.
16. Hamidova, R. F. (2023). MODERN FORMS OF CONDUCTING THE PEDAGOGICAL COUNCIL. *Journal of Modern Educational Achievements*, 1212(12), 30-34.
17. Muhammadqobilovna, J. S. (2024). UCHINCHI RENESSANS DAVRIDA BARKAMOL INSON TARBIYASIGA OID MANAVIY-MARIFIY QARASHLAR. *Journal of Innovation in Education and Social Research*, 2(4), 22-24